



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI**  
**CHIRCHIQ SHAHAR HOKIMINING**  
**Q A R O R I**

---

2022 - yil 31 - oktabr

531-10-150-Q/22

Chirchiq shahar hokimligi

**Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2023-yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.10.2020-y., 03/20/642/1396-son; 02.04.2021-y., 03/21/681/0264-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 14.03.2022-y., 03/22/759/0213-son) 39-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonunining (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 15.10.2020-y., 03/20/641/1389-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son) 43-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrda 965-son qarori bilan tasdiqlangan Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida nizomga asosan shaharda 2023-yil uchun ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish o‘rinlarining eng kam soni belgilash maqsadida, **qaror qilaman:**

1.O‘zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunning 39-moddasiga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynaladigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun shahardagi korxona, tashkilot va muassasalar uchun xodimlarning ro‘yxat bo‘yicha o‘rtacha sonidan 7 foizidan ortiqni tashkil etmagan miqdorida 665 kishini tashkil etadigan shu jumladan:

—o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalar uchun 54 kishi;

—umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini,

kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo'lgan yoshlar hamda "Mehribonlik" uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilari uchun 484 kishi;

—O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo'shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilgan shaxslar uchun 67 kishi;

—nogironligi bo'lgan shaxslar hamda pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun 20 kishi, shundan nogironligi bo'lgan shaxslar 9 kishi;

—jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko'ra o'ziga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilgan shaxslar uchun 34 kishi;

—odam savdosidan jabrlanganlar uchun 6 kishi miqdorda ish o'rinlari zaxirasi belgilansin.

2.Chirchiq shahri bo'yicha ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun 2023-yilga kvotalangan ish joylarining miqdori belgilangan korxona va tashkilot ro'yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.Korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari tomonidan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ish bilan ta'minlash uchun 2022-yil 15-dekabr kuniga qadar kvota ish joylari umumiy miqdorining kamida 25 foizi uchun, 2023-yilning 10-aprelidan kechikmagan holda ish joylarining qolgan qismi 75 foizini (ajratish yoki band qilib qo'yish) barpo etish, har bir kvota toifasi bo'yicha ish o'rinlari band qilib qo'yiladigan kasblar va lavozimlar, mutaxassisliklar kesimidagi ma'lumotlarni va qaror bo'yicha chiqarilgan buyruq nusxalarini shahar Aholi bandligiga ko'maklashish markaziga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

4.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 15-sentabrdagi 263-son qarorining ilovasi bilan tasdiqlangan Ish o'rinlarini mehnat sharoitlari va asbob uskunalarning jarohatlash xavfligi yuzasidan attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomning 6-bandiga asosan korxona, tashkilot va muassasalarda nogironligi bo'lgan shaxslar band bo'lgan barcha ish o'rinlari va kasblar attestatsiyadan o'tkazilishi kerakligi belgilanganligi qayd qilinsin.

5.Korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish joylarining ko'rsatib o'tilgan miqdorini

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida nizomga muvofiq ish joylari sanitariya gigiyena normalariga va xodim o‘z majburiyatlarini bemalol bajarishini ta‘minlaydigan mehnat sharoitlariga muvofiq bo‘lishini ta‘minlasinlar.

6.Ushbu qaror bajarilmaganda, shuningdek, ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilot, korxona va muassasalarning mansabdor shaxslariga nisbatan qonunchilik hujjatlariga ma‘muriy javobgarlik qo‘llanishi haqida ogohlantirilsin.

7.Ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan korxona tashkilotlarga, O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risidagi nizomiga asosan (ro‘yxat raqami 3163, 2019-yil 31-may) belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya ajratilishi taminlansin.

8.Shahar Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi (S.Erkayev) bir hafta muddatda mazkur qarorni tegishli korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlariga yetkazsin hamda uning bajarilishi ustidan qat‘iy nazoratni ta‘minlasin.

9.Chirchiq shahar hokimining 2021-yil 20-dekabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2022-yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida”gi 283-10-150-Q/21-son qarori 2022-yil 31-dekabrdan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10.Mazkur qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

11. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining birinchi o‘rinbosari J.Raxmonov zimmasiga yuklatilsin.

Chirchiq shahar hokimi



D. Xidoyatov

Chirchiq shahar hokimining  
2022 yil 31 oktabrdagi  
531-10-150-Q/22-son qaroriga  
1-ilova

Chirchiq shahrida 2023 yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun band (kvota) qilib qo'yiladigan ish o'rinlari to'g'risida

**MA'LUMOT**

| № | Ish o'rinini zaxiralashi belgilangan korxona tashkilot nomi | Korxona tashkilot STIR (STIR aniq bo'lishi shart) | Shtat jadvali bo'yicha xodimlar soni | Jami zaxiralaniishi belgilangan ish o'rinlarining soni | Shundan:                            |                                                                                                                                               |                                                                                                                                                                                                                                                                                                             |                                                 |                                       |                                                                                                                           |                            |
|---|-------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------|--------------------------------------|--------------------------------------------------------|-------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------|---------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------|
|   |                                                             |                                                   |                                      |                                                        | Nogironligi bo'lgan fuqarolar uchun | 14 yoshga to'lmagan bolalari, nogironligi bo'lgan bolalari bor yolg'iz otaga yoki onaga, shuningdek ko'p bolali oilalarning ota-onalari uchun | Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlari hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo'lgan yoshlar, "Mehribonlik" uyalarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilari uchun | Muddatli xarbiy xizmatdan bo'shatilganlar uchun | Pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun | Jazoni o'tash muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko'ra tibbiy tushdagi majburlov choralari qo'llanilgan shaxslar uchun | Odam savdosi qurboni uchun |
| 1 | "Maxam-chirchiq" AJ                                         | 200941518                                         | 5880                                 | 175                                                    | 2                                   | 15                                                                                                                                            | 111                                                                                                                                                                                                                                                                                                         | 25                                              | 2                                     | 15                                                                                                                        | 5                          |
| 2 | "Chirchiq transformator zavodi" AJ                          | 200941525                                         | 1125                                 | 15                                                     | 0                                   | 2                                                                                                                                             | 8                                                                                                                                                                                                                                                                                                           | 2                                               | 1                                     | 2                                                                                                                         | 0                          |
| 3 | "Chirchiq Asfalt beton servis" MCHJ                         | 300827686                                         | 23                                   | 2                                                      | 0                                   | 0                                                                                                                                             | 0                                                                                                                                                                                                                                                                                                           | 0                                               | 0                                     | 2                                                                                                                         | 0                          |
| 4 | "Chirchiq Qurilish Metallari va Konstruksiya" ICHK MCHJ     | 200941636                                         | 35                                   | 2                                                      | 0                                   | 0                                                                                                                                             | 1                                                                                                                                                                                                                                                                                                           | 0                                               | 0                                     | 1                                                                                                                         | 0                          |
| 5 | "Chirchiq aviatsiya ta'mirlash zavodi" DK                   | 200946336                                         | 260                                  | 7                                                      | 0                                   | 1                                                                                                                                             | 4                                                                                                                                                                                                                                                                                                           | 2                                               | 0                                     | 0                                                                                                                         | 0                          |
| 6 | "Chirchiq tajribaviy asfalt beton zavodi" MCHJ              | 200941723                                         | 52                                   | 3                                                      | 0                                   | 0                                                                                                                                             | 0                                                                                                                                                                                                                                                                                                           | 1                                               | 0                                     | 2                                                                                                                         | 0                          |

|    |                                                                                                       |             |        |     |   |   |     |    |   |   |   |
|----|-------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------|--------|-----|---|---|-----|----|---|---|---|
| 7  | “Chirchiq Issiqlik energiyasi” UK                                                                     | 206982494   | 240    | 9   | 0 | 2 | 3   | 1  | 0 | 3 | 0 |
| 8  | Toshkent viloyati Chirchiq shahar sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo'limi | 20094631274 | 1274   | 5   | 0 | 1 | 2   | 1  | 1 | 0 | 0 |
| 9  | “Mednur shifo” MCHJ                                                                                   | 304616732   | 72     | 3   | 0 | 1 | 2   | 0  | 0 | 0 | 0 |
| 10 | Chirchiq shahar Tibbiyot birlashmasi                                                                  | 200946296   | 655    | 13  | 1 | 3 | 8   | 1  | 0 | 0 | 0 |
| 11 | Toshkent viloyati ko'p tarmoqli tibbiyot markazi                                                      | 206983248   | 158    | 6   | 0 | 2 | 4   | 0  | 0 | 0 | 0 |
| 12 | Toshkent viloyati bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazi                                              | 203369664   | 631    | 9   | 1 | 1 | 6   | 1  | 0 | 0 | 0 |
| 13 | Toshkent viloyati “Perinatal markazi” (roddom)                                                        | 203108497   | 459    | 4   | 0 | 1 | 3   | 0  | 0 | 0 | 0 |
| 14 | Chirchiq shahar 3-son oilaviy poliklinikasi                                                           | 207219411   | 164    | 2   | 0 | 0 | 2   | 0  | 0 | 0 | 0 |
| 15 | Toshkent viloyati Yuqumli kasalliklar shifoxonasi                                                     | 203108505   | 189    | 6   | 0 | 1 | 5   | 0  | 0 | 0 | 0 |
| 16 | Chirchiq shahar 1-son oilaviy poliklinikasi                                                           | 207219428   | 206,25 | 4   | 0 | 1 | 3   | 0  | 0 | 0 | 0 |
| 17 | Chirchiq shahar 2-son oilaviy poliklinikasi                                                           | 207219404   | 170,5  | 5   | 0 | 1 | 4   | 0  | 0 | 0 | 0 |
| 18 | “O'z kimyosanoatloyiha” AJ                                                                            | 200941533   | 171    | 3   | 0 | 0 | 3   | 0  | 0 | 0 | 0 |
| 19 | Chirchiq shahar Obodonlashtirish boshqarmasi                                                          | 204052085   | 256    | 8   | 0 | 1 | 1   | 0  | 1 | 5 |   |
| 20 | “Orzu-teks” MCHJ                                                                                      | 206502916   | 410    | 18  | 0 | 2 | 15  | 1  | 0 | 0 | 0 |
| 21 | “Uztex group” MCHJ                                                                                    | 204651661   | 6996   | 225 | 1 | 3 | 200 | 20 | 0 | 0 | 1 |
| 22 | “Fashion premium” MCHJ                                                                                | 206661141   | 114    | 6   | 1 | 1 | 4   | 0  | 0 | 0 | 0 |
| 23 | “Lukbo tekstil” MCHJ                                                                                  | 207092003   | 661    | 23  | 0 | 3 | 20  | 0  | 0 | 0 | 0 |
| 24 | “Alkim tekstil” MCHJ CHK                                                                              | 204681499   | 200    | 12  | 0 | 2 | 8   | 2  | 0 | 0 | 0 |
| 25 | “Chirchiq mega biznes” MCHJ                                                                           | 302349694   | 476    | 4   | 0 | 1 | 3   | 0  | 0 | 0 | 0 |
| 26 | “Suvoqova” DUK Chirchiq filiali                                                                       | 201320671   | 368    | 6   | 0 | 1 | 2   | 1  | 0 | 2 | 0 |
| 27 | “Ahmad-tex-group” QK MCHJ                                                                             | 305794077   | 168    | 6   | 0 | 0 | 4   | 2  | 0 | 0 | 0 |
| 28 | “Compact textiles yarn” MCHJ                                                                          | 303942384   | 425    | 30  | 0 | 4 | 20  | 2  | 2 | 2 | 0 |
| 29 | Chirchiq Davlat Pedagogika universiteti                                                               | 207258862   | 1533   | 10  | 0 | 2 | 6   | 2  | 0 | 0 | 0 |
| 30 | O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti                                             | 200541019   | 1012   | 33  | 2 | 0 | 25  | 2  | 4 | 0 | 0 |
| 31 | Chirchiq olimpiya xazinalari kolleji                                                                  | 200946067   | 235    | 7   | 1 | 1 | 4   | 1  | 0 | 0 | 0 |

|    |                             |           |          |     |   |    |     |    |    |    |   |
|----|-----------------------------|-----------|----------|-----|---|----|-----|----|----|----|---|
| 32 | Chirchiq tibbiyot kolleji   | 200946289 | 87       | 2   | 0 | 1  | 1   | 0  | 0  | 0  | 0 |
| 33 | Chirchiq Kasb hunar maktabi | 200946415 | 29       | 2   | 0 | 0  | 2   | 0  | 0  | 0  | 0 |
|    | Jami                        |           | 23134,75 | 665 | 9 | 54 | 484 | 67 | 11 | 34 | 6 |